

## SHAXSDAGI INTERNET VA KOMPYUTER ÒYINLARIGA TOBELIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ADPI Pedagogika va Psixologiya  
kafedrası o’qituvchisi

Abdulmajidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi.  
ADPI talabasi Mamarasulova Sojidxon.

**Annotatsiya:** Maqolada globallashuv davrida turli yoshdagi shaxslarning internetdan haddan ziyod ko’p foydalanishi, turli internet o’yinlari va ularning insonlar psixikasiga zararli ta’sirlari haqida so’z yuritilgan. Kompyuter o’yinlariga tobelik nafaqat bolalar yoki yoshlar balki yetuklik yoshidagi turli ijtimoiy kelib chiqishga ega bo’lgan shaxslarda kuzatilmoqda. Internet va kompyuter o’yinlariga tobelikni omillari bugungi kunda pedagoglar, psixologlar va shifokorlar tarafidan ko’p izlanishlar bilan muammo sifatida o’rganilayotgani mavzuning nechog’lik global muammo ekanidan darak bermoqda.

**Kalit so’zlar:** shaxs, tobelik, psixika, ontogenez, virtual olam, extiyoj, internetga qaramlik.

Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar va internet misli kòrilmagan sur’atlarda rivojlanib bormoqda. Bugungi davr shu darajada rivojlanib, taraqqiy etib bormoqdaki, inson aqli tafakkuriga tan bermasdan iloji yòq. Darhaqiqat, 21-asrni ham ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan asr desak mubolağa bòlmaydi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma’lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Kommunikatsiya vositalari ham shu darajada mukammal rivojlandiki, uzoq masofadagi yaqinlari bilan aloqa qilish osonlasha boshladi. Bundan tashqari kòpchilik insonlar uyidan chiqmagan holda ishlash imkoniyati, qidirib topaolmagan kitoblarini internet orqali topib olishi, yoki turli xil ya’ni qiziqarli òyinlar òynashi, eng yangi va eng Sara kinolarni kòrish, yangi xit musiqalardan bahramand bòlishi esa oddiy xol bòlib qoldi. Bunday imkoniyatlarni texnologiya va kommunikatsiya vositalarining eng katta yutuği bòlmish „Internet“ hadya etmoqda.

Yangi texnologiyalarning imkoniyatlari haqida habardor bòlgan odamlar òzlarini virtual olamga tashlashmoqda. Axborot sohasidagi globallashuv qanchalik yuqori chòqqisiga chiqqaniga bugungi kunda millionlab yoshlarning internetdan foydalanishga òtganligi va òz kasbining ustalarini internet tarmoği orqali mablağ topayotganidan ham anglash mumkin. Inson òzini virtual olam deb atalgan chuqurlikka otar ekan uning psixologik ta’siri xavfli bòlishi mumkinligini unutilishadilar. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishga imkon beradigan kòplab qurilmalar ham mavjud bòlib, yoshlar shu qurilmalarga tobe bòlib bormoqda.

Tobelik birinchi navbatda ziddiyatli xatti- harakatlar, surunkali depression holatlar, real ijtimoiy munosabatlardan òzini Chetan olish va virtual olamni real olamdan ustun kòrish, jamiyatga moslashish, internetdan foydalanish qobiliyatining susayishiga, bolada nutq hosil bòlishini orqada qolishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda internetdan foydalanish, òsmir shaxsda „òqish“ va „òrganish“ ga intilish òrniga „izlashni“ afzal kòrishni yuzaga keltiradi.

Internetga qaram shaxslarning asosiy muammolaridan biri- òzini òzi qabul qilish sohasidir. Qaram òsmirlar atrofdagilar bilan muloqot qilishda va òzlarini kòrsatishda qiynchiliklarga duch kelishmoqda. Bunday payday yoshlarda òz „men“ I va tanadagi ehtiyojlarini anglashda ham jiddiy muammolar kuzatiladi.

Odamlarning hayotiga tòliq internetning kiritilishi oqibatlarini òragnish xali ham dolzarb mavzudir. Internet texnologiyalari doirasini kengaytirish, yangi aloqalarni

òrnatishning bir usulidir. Shu òrinda insonlarda bir savol tuğilishi mumkin „, nima uchun odamlar internetdan foydalanishadi?" va bu mavzu kòplab psixologik tadqiqotlarning mavzusiga aylandi. A. E Voyskunskiy inson internet orqali qondirishi mumkin bòlgan ehtiyojlarini uch asosiy turini ishlab chiqaradi. Ular: komunikativ, bilim va òyin ehtiyojlaridir [1]. Komunikativ ehtiyoj elektron pochta orqali yozishmalar, formulary va boshqa narsalar orqali qondiriladi. Bilim ehtiyoji tarmoq matbuotini óqish, muayyan axborotni qidirish yoki mavjud yangiliklarni qidirish, shuningdek, masofaviy ta'lim shakllari va boshqalar bilan ta'minlanadi. Òyin ehtiyojlarini qondirish misol uchun kompyuter bilan yoki internet orqali yaqin xamrohlar bilan individual va guruh òyinlari bòlishi mumkin.

Bugungi kundagi bolalar kompyuter òyinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda òsib, ulğaymoqda. Bu quvonarli holat, albatta. Biroq har narsaning me'yori bòlmoği zarur va bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatsiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bòlib qoladilar. Bolalar va òsmirlar internet tarmoğlarida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bòlmagan saytlar chiqib qolishi mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va òsmirni òziga kòproq jalb qiladi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyğonishi barchaga ma'lum. Shu sababdan kattalar farzand tuğilgan kundan boshlab ularga issiq choy, qozonlarga yaqinlashmaslaik, pichoq, qaychi kabi òtkir ucli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari ularda axborotlardan tòğri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmoği manbalari zamonamiz òsmirlarining bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan birga ayrim jihatlariga kòra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir kòrsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter òyinlariga tobe bòlib qolish xavfidan chòchib, oldini olishga harakat qilishgan bòlsalar, hozirgi bu xavfga Yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qòshildi. Internetga qaramlik hodisasi 1994- yikdan buyon xorijiy psixologiyada óragnila boshlangan hisoblanadi. Internet- qaramlik „, onlayn rejimga Marbury istak, onlayn rejimda bòlish va internetdan chiqib ketmaslik" deb ta'riflanadi [2].

Bolalar psixologi Emma Kenining aytishicha, ota-onalar kòpincha bolalarni zòravonlik sahnalari aks etgan videolarni kòrish yoki internetga qaram bòlib qolishdan qòrqishadi. Ammo onlayn xatarga uchrash balaning ruhiyatiga qattiq ta'sir qilishi isbitlangan. Bularni oldini olish uchun bolalarga virtual olamni real kabi jiddiy qabul qilishga òrgatishimiz kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni fan- texnika yutuqlari bilan tanishtirishi zarur. Axborotlar oqimidan foydalanish bòyicha yoshlarda soğlom immunitetni hosil qilish, salbiy oqibatlarini ham aytib òtish kerak. Ayrim hollarda virtualashuv jarayonining jadallashishi òsmirda ijtimoiy munosabatlarni yomon kechishga olib kelishi mumkin.

1. A. E Voysunskiy „, Internetga qaramlikning dolzarb muammolari " // Psixologik jurnal. 2004. T. 25. N°1. C.90-100 betlar.

2. Jichkina A.- virtual muloqotning zamonaviy tadqiqotlari: muammolar, farazlar, natijalar|| A. Jichkina. maqola 165bet.

3. Shabshin. I. I.- internetda muloqotning psixologik xususiyatlari va hodisalari |Moskov Sky psixoterapevtik jurnali.-2005.-N°1.

4. M. A. Jukova „, Kompyuterga qaramlikni amalga oshirish turlaridan biri sifatida"// SUGGPU bulletin. 2013- yil. 11 - son. 120-129-betlar.